TYPES OF MARKETS AND THEIR CLASSIFICATION IN THE KHIVA KHANATE IN THE 18TH–19TH CENTURIES

Ruzmetova Oydinoy Erkinboy qizi

Doctoral Researcher, Urgench State University

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.21214433

Abstract: This article examines the types of markets that operated in the Khiva Khanate during the 18th–19th centuries, their classification, and their role in the socio-economic life of the khanate. Based on written sources, archival documents, and the works of local and foreign authors, the study analyzes the degree of specialization, scale of operation, and functional characteristics of the markets within the territory of the khanate.

Keywords: Khiva Khanate, types of markets, market classification, specialized markets, bread market, grocery market, livestock market, domestic trade, tobacco market, trade relations.

XVIII – XIX ASRLARDA XIVA XONLIGIDA BOZOR TURLARI VA ULARNING TASNIFI

Annatatsiya. Mazkur maqolada XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligida faoliyat yuritgan bozorlarning turlari, ularning tasnifi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rni tadqiq etilgan. Tadqiqotda yozma manbalar, arxiv hujjatlari hamda mahalliy va xorijiy mualliflarning asarlari asosida xonlik hududidagi bozorlarning ixtisoslashuv darajasi, faoliyat ko‘lami va funksional xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, bozor turlari, bozor tasnifi, ixtisoslashgan bozorlar, non bozori, baqqol bozori, chorva bozori, ichki savdo, tamaki bozori, savdo munosabatlari.

KIRISH. Xiva xonligi iqtisodiy hayotida bozorlar muhim o`rin tutgan. Bozorlar va ularning turlariga tavsif berilganda odatda, ular shaharning markaziy qismlarida joylashgan bo'lib, asosan, hunarmandchilik mahsulotlari, kiyim-kechak, ipak, meva-sabzavotlar, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar birlamchi kundalik ehtiyojlar hisoblangan. Bozorlarning ixtisoslashuvi ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bevosita bog`liq bo`lib, aholi ehtiyojlari ortishi va savdo munosabatlarining jonlanishi natijasida bunday jarayon kuzatilgan. Bozorlarni o’rganish birgina Xiva xonligi misolida nafaqat yaqin o`tmish ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini balki, bugungi jamiyatimiz bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot negizini o`rganish ham demakdir. Tarixshunoslikda bozorlar haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lsa-da, ularning turlarini alohida tadqiq qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ushbu tadqiqot maqsadi ham Xiva xonligida mavjud bo‘lgan bozor turlarini aniqlash va tasniflashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillari asos qilib olindi. Xiva xonligidagi bozor turlarini aniqlash va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, tasniflash hamda manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida Xiva xonligida faoliyat yuritgan turli bozorlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ularning faoliyat shakllari o‘zaro taqqoslandi. Tizimli yondashuv asosida bozorlar xonlikning iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi o‘rni bilan bog‘liq holda o‘rganildi.

Natijalar. Xonlik shaharlarida ham kuzatilgan ma'lum turdagi mahsulot xilini sotishga mo'ljallangan bozorlar, mahsulotlarning alohida bir hududda to`planishi, ixtisoslashgan bozorlarning tashkil topishiga olib kelgan. Bu jarayon ayniqsa XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning birinchi yarmida yanada kuchaydi. XIX asr arxiv malumotlariga ko`ra, Xivada maxsus bozorlar paxta bozori (g'avocha), kunjut bozori, g'alla bozori, chigit bozori, guruch bozori, ro'yan va tamaki bozorlari, baqqol bozori va boshqa turdagi bozorlarga bo'lingani qayd etib o'tish kerak [1.139-140]. Bu ixtisoslashgan bozor (rasta)lardan olinadigan soliqlar miqdori bilan birga ko`rsatilgan. A.Vamberi tim atrofida joylashgan non bozori, baqqol bozori, sham bozori, sartarosh bozori joylashganligi haqida ma'lumot beradi.[2.163]. Sartarosh bozori xususida bir manbada shunday ma'lumotni uchratamiz: "bozorda sartarosh do'koni bo`lib, u joy chodir orqali gilamchalar bilan qoplangan. Barcha anjomlar devorga ilingan".[3.7]. Yana o`sha davr xotiralarida Xiva bozorining o'ziga xos hayoti batafsil tasvirlanib shunday deyilgan: "Bozordan unchalik uzoq bo'lmagan joyda, yarim mil uzoqlikda, chorva mollari, keyin bug'doy sotadigan bozor bor, keyin esa deyarli bizning gavjum bozorimiz kabi davom etadi va bu yerda qo'y terisidan tikilgan paltolar, xalatlar, etiklar, qo'y go'shti va eng kattasidan tortib kichigigacha barcha zarur narsalar sotiladi. Bu tovarlarning barchasi qo'llarda qichqiriqlar bilan ko'tariladi".[4.110]. Shahardagi *chorva mollari bozori* sotilayotgan mol turiga qarab o'z navbatida yana bir qancha bozor turlariga bo'lingan. Ularga yaqin yerlarda esa *pichan* va chorvachilik uchun zarur bo'lgan maxsulotlar bilan savdo amalga oshirilgan. Bozorlarning bunday ixtisoslashuvi har bir shahar va uning atroflari iqtisodining rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liqligi, shuningdek, talab va ehtiyojning o'zaro uyg'unligi bilan ham belgilanar edi. Bu ayrim shaharlar bozorlariga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ishlab chiqaruvchi mahsulotlari bilan bog`liq edi. Ba'zi shaharlarda mavjud bo'lgan bozorlar boshqalari misolida uchramasligi ham mumkin. Albatta, xonliklarning barchasida ipakchilik keng rivojlangan bo`lib, Buxoroda "bozori bargi tut" nomi bilan mashhur bozorlar bo'lgan bo`lsa, bunday bozorlar Xivada *"pilla bozori"* nomi bilan mashhur edi.[5.228] *O`tin bozorlari* ham uchragan. Tadqiqotchi D. Ziyoyeva bozorni mahsulot turiga qarab qayerda sotilishiga izoh bergan. Chorva, o`tin, ko`mir va yem-hashak, yog`och bozorlari, asosan, shahar chetlarida tashkil qilingan.[6.298] Yirik shaharlarda esa, *chorva mollari* uchun bir nechta joyda bozor tashkil qilingan. Eron elchisi hisoblangan Mirzo Rizoqulixon Hidoyat safarnomasida Xiva shahrini ta`riflaganda, "Xiva shahri atrofida katta maydonlar bor, shulardan bir maydonda o`n mingdan ziyod arava otga bog`langan holda yig`ilib turgan. Yana bir maydonda ot oldi-sotdisi bo`ladi. Yana bir maxsus joy bo`lib, u yerda tuya sotadilar. Boshqa bir muayyan joyda asir sotadilar"[7.49] - deya ma`lumot beradi. Xiva xonligining XVIII–XIX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida *qul bozorlari* muhim bozorlardan biri sifatida, nafaqat ichki savdoda, balki Buxoro bilan bo`ladigan savdodagi asosiy tovar vazifasini o`tagan. E.Zelkina ma`lumotlariga ko`ra, XVIII asrda Xivaning katta bozorlarida 200 tagacha qullar bo`lganligini izohlaydi.[8.20] Bu raqamlar davr o`tishi bilan ko`payib borgan. Mazkur davrda qulchilik tizimi feodal jamiyatning iqtisodiy tuzilmasida muayyan o'rin tutgan bo'lib, u asosan urushlar, bosqinlar va asir olish amaliyoti natijasida shakllangan. Qullar jamiyatning pastki tabaqasini tashkil etgan bo`lsa, ularning mehnatidan uy xo'jaliklarida, bog'dorchilik va dehqonchilik ishlarida keng qo'llanilgan. Qul bozorlari asosan Xiva, Ko`hna Urganch, Qo'ng'irot, Chimboy, Xo`jayli, Hazorasp, Xonqa kabi yirik savdo markazlarida faoliyat yuritgan. Ular orasida Xivadagi qul bozori eng mashhuri bo'lib, Olloqulixon buyrug'i bilan Dishanqal'a hududida maxsus qurilgan. Arxitektura jihatidan bu bozor "G" shaklida barpo etilib, sakkizta xonadan iborat bo'lgan. Savdo jarayoni ko'proq yoz faslida ayvon ostida olib borilgan. Qullarni asosan yovmud, qozoq va turkman qabilalari Eron, Afg'oniston va Rossiya hududlaridan asirga olib kelishgan. Ular orasida rus qullari va eronlik ayol asiralarning bahosi yuqori turgan. Tarixiy manbalarda yosh, sog'lom erkak qulning eng yuqori bahosi 100 dan 250 tillagacha, huddi shu yoki undan yuqori narxda eronlik ayollar qul qilib sotilganligi qayd etiladi.[9.110] Ma'lumot o`rnida for qullari – dugma deyilgan va ularning soni bir bozor kunida 200

tagacha sotilgan. Qullar bilan savdo faqat pul asosida amalga oshirilgan, boshqa tovarlar esa ayirboshlash yo‘li bilan ham bajarilgan. Qul bozori nafaqat iqtisodiy, balki xalqaro munosabatlarda ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Xonlikda qul savdosining davom etishi Rossiya bilan diplomatik ziddiyatlarni kuchaytiribgina qolmay, Xiva hukumatining rus asirlarini ozod etmasligi Rossiyaning siyosiy bosimini oshirgan va natijada 1840-yillarda qul savdosi cheklovga uchragan. Shunga qaramay, qulchilik munosabatlari butunlay yo‘qolmagan va ayrim hududlarda yashirin tarzda davom etgan. Gandimiyon bitimidan keyin xonlik bo`yicha barcha qullarga erkinlik berilgan. Shaharlarda tabiblarning do‘konlari ham mavjud bo‘lib, unda dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dorilar va ziravorlar bilan ham savdo qilingan, shu yerning o‘zida ba’zi kasallar qabul qilingan. Sotish uchun mo`ljallangan mahsulotlar - don mahsulotlari, ho`l va quruq mevalar rastalarda joylashib, chorsularda savdo yoymalarini ham uchratish mumkin bo`lgan. Ammo qiziq jihati, Buxoro amirligidagi mashhur *kitob do`kon*larini Xivada uchratish mushkul edi. 1902-yilda xonlikka kelgan V.G. Yan Xivani umumiy manzarasini tasvirlar ekan, “bu yerda maktab, kasalxona, teatr, kitob do`konini qidirish behuda” – deb izohlaydi.[10] Bu bilan xonlik hayotida kitob savdosi bo`lmagan degan tushunchani olmaslik kerak. O`rta Osiyoda litografiyasining paydo bo`lishi Xivada paydo bo`lganligi inobatga olinsa, V.G.Yanning kitob savdosi xususidagi fikrlariga qo`shilib bo`lmaydi. A. Boltayev esdaliklarida ko`chalar bilan kesishgan chorsularda qassoblar, baqqollar, muqovasozlar, to`n olib sotuvchilar, kitob sotuvchilar, yuganchilar, bo`yoqchilar do`konlari joylashganligini[11.84] keltirishi fikrimiz isboti desak, mubolag`a bo`lmaydi. Tamaki bozori –asosan Xazaraspda joylashgan va u yerga har yili Qarshidan yuborilib turilgan. Biroq tamakining keng tarqalmaganligining sabablaridan biri aholi orasida tamakiga nisbatan nos savdosining yo`lga qo`yilishi, ehtimol. Xonlikda nos bozorlarining mavjudligini arxiv manbalari ham isbotlaydi. Xususan, Porsudagi nos bozoridagi tartibot haqida ma’lumotda beruvchi manbada nos savdosi bilan bog`liq savdo kelishuvlari aks etadi [12.] Nos savdosining keng yo`lga qo`yilganligini alohida nos solig`ining joriy qilinishi ham sabab bo`lgan.

Muhokama. Xiva xonligida bozorlarning ixtisoslashuvi savdo ishtirokchilari o`rtasida tabaqalashuvga hamda bozorlarning mahsulot turi bo‘yicha ajralishi oldi-sotdi jarayonlarini tartibga solish, xaridor va sotuvchilar o‘rtasidagi aloqalarni yengillashtirish va shahar iqtisodiy makonini funksional tashkil etishga xizmat qilgan. Ayrim bozorlarning nomlari tovar turi yoki kasb bilan bog‘liq shakllangan. Baqqol bozori, non bozori, sartarosh bozori, ipak bozori, chorva bozori kabi. Bunday nomlanishlar boshqa xonliklarda ham uchragan. Shahar bozorlarida ixtisoslashuv darajasi qishloq bozorlariga nisbatan yuqori bo‘lgan.

Xulosa. Xiva xonligida bozorlar faoliyat muddati, mahsulot turi, ixtisoslashuvi va savdo ko‘lami bo‘yicha farqlangan. Bozorlarning, asosan, alohida turlarga ajratilib savdo amalga oshirilishi xonlikning markaziy shaharlari bo`lmish Xiva, Xonqa, Xazarasp, Yangi Urganch va boshqa shaharlardagi bozorlarda shakllangan. Ixtisoslashgan bozorlarning mavjudligi xonlik savdo tizimining murakkablashganligini ko‘rsatadi. Bozor turlari xonlik iqtisodiy hayotining tarkibiy qismi sifatida muhim o‘rin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иванов И.И. Архив хивинских ханов XIX в. –С. 139–140.
2. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб, 1865. - С. 163.
3. Каразин Н. Базарные типы средней Азии (Азиатский цирюльник) // Нива. 1875, № 7
4. Хива по рассказам пленных, Туркестанский сборник, т. 42, –С. 110.; (Желябужский Е. Очерки и завоевание Хивы. М., 1875. –С.83.)
5. Агзамова Г.Ўзбекистон шаҳарлари XVI – XIX асрнинг ўрталарида. — Т.: Adabiyot uchqunlari, 2017. — (228) б.

6. Зиёева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида: шаҳар маданияти ва урбанизация жараёнлари. — Тошкент: “Yangi nashr”, 2017. – С. 298
7. Mirzo Rizoqulixon Hidoyat-Lolaboshi. Safarotnomai Xorazm. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. B. 49
8. Зелкина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней азии. -М.: 1930. -С. 20
9. Хива по рассказам пленных, Туркестанский сборник, т. 42, –С. 110.
10. *Самойлович Н.* и *путешественник* В. *Г. Ян* в *хивинском дворце* в *начале XX* в.) // Проблемы востоковедения. 2013.
11. Boltayev A. Xiva materiallari. Qo`lyozma. 45-daftar 84-b.
12. Ичанқальа музей-қўриқхонаси архиви, № 3963/8-рақамли хужжат